




**NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**NAVOIY
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-MART
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-mart oyida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatimiz korxonalaridan 20 220,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 79,0 % ni tashkil etdi.




B

Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash




C

Ishlab chiqaradigan
sanoat



D

Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash




E


Suv bilan ta'minlash;
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

2021- yil
yanvar-mart



2022- yil
yanvar-mart




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 20,0 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 2,3 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 58,6 % ga o'sishiga xizmat qildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 90,7 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 903,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,4 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. soʻm

Yanvar-mart

FHI,% da



2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15 985,1 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,0 % ini tashkil etdi.

2021- yil yanvar-mart


83,5 %

2022- yil yanvar-mart

79,0 %

Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2021- yilning yanvar-mart oylarida – 0,3 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 10,4 % (7,1 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 83,6 % (86,3 %) va quyi texnologiyalisi – 5,7 % (6,3 %)ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2021- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 2,2 % (2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 65,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 77,0 % (2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 99,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,1 % (2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 85,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,4 % (2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 94,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 8,4 % (2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 94,8 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Kalsiy xlorid




Suvsiz ammiak



Sement




Azot



Yogurt



Yumshoq bug'doy va spelta uni




2022- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 200,9 ming tonna suvsiz ammiak (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 144,8 % ga o'sgan), 64,3 ming tonna azot mochevina (karbamid) (192,9 %), 3,0 ming tonna kalsiy xlorid (357,5 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, ming tonna.	913,0	513,1	56,2
Mochevina (karbamid), ming tonna azot.	33,3	64,3	192,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	15 897,0	14 907,1	93,8
Sirka kislotasi, tonna	852,0	1 383,0	162,3
Kislorod, ming m ³ .	34,6	38,9	112,3
Suvsiz ammiak, ming tonna,	138,8	200,9	144,8
Kalsiy xlorid, ming tonna.	0,8	3,0	357,5
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna	1 287,3	1 461,3	113,5

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati ulushi 77,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 106,8 % ni tashkil etdi, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 77,0 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi esa, 99,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 12 306,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ulushi 0,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 50,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,3 (m) ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 140,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 94,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 373,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 135,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 70,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 329,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati



2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 100,2 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %, fizik hajm indeksi 102,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 154,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 169,4 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,3 % ni, fizik hajm indeksi 130,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 334,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 317,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,5 % ni) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 158,6 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	2 668,7	3 218,7	550,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 503,6	1 659,5	155,9

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	13 721,8	14 474,8	753,0
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	10 141,4	16 181,0	6 039,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 159,6 % ni va oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 105,5 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 883,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 108,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-mart

41,8%

2022- yil
yanvar-mart

41,3%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-mart

58,2%

2022- yil
yanvar-mart

58,7%




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,01 % (2021- yil yanvar-mart oylarida 0,01 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib 26,1 % ni, Navoiy shahri 21,9 % ni, Qiziltepa tumani 12,1 % ni, Xatirchi tumani 11,8 % ni hamda Navbahor tumani 8,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (108,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Karmana tumanida (131,4 %) hamda Navbahor tumanida (123,1 %) qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi to'g'ri kelib Karmana tumanida 26,1 % ni shuningdek, Navoiy shahriga 21,9 % ni, Qiziltepa tumanida 12,1 % ni, Xatirchi tumanida 11,8 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi



Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumanida to'g'ri kelib, 31,7 % ni shuningdek, Navoiy shahrida 22,7 % ni, Xatirchi tumanida 8,8 % ni, Navbahor tumanida 8,4 % ni tashkil etdi.

438,5 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-mart

490,5 mlrd. so'm



2021- yil yanvar-mart

518,4 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-mart



Jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 20,7 % ni shuningdek, Karmana tumani 18,2 % ni, Qiziltepa tumani esa 18,1 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 85,5 % ni, shuningdek, Karmana tumani 10,3 % ni, Qiziltepa tumani esa 1,4 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyati

2020- yil

12 698,1 mlrd. so'm

2021- yil

16 676,1 mlrd. so'm

2022- yil

20 220,1 mlrd. so'm



2020- yil


103,5 %

2021- yil

109,3 %

2022- yil

106,3 %




FHI, % da


mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (114 348,8 ming so'm), Karmana tumani (15 770,7 ming so'm), Qiziltepa tumani (1 771,5 ming so'm), Uchquduq (1 742,1 ming so'm) tumanida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.






Navoiy viloyati



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi Karmana tumani - 1 737,4 ming so'mni, Navoiy shahrida - 1 278,4 ming so'mni, Zarafshon shahrida - 808,7 ming so'mni, G'ozg'on shahrida - 704,7 ming so'mni va Qiziltepa tumani - 679,0 ming so'mni tashkil etdi.


Navoiy viloyati



o'sish sur'ati
ming. so'm

Navoiy vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatimizda 3 710 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 790 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,3 %) Navoiy shahriga, 616 tasi (16,6 %) Karmana tumaniga, 468 tasi (12,6 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Jami faoliyat yuritayotgan



Jami yangi tashkil etilgan



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 244 ta loyiha bo'yicha 612,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 2,7 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021- yilning yanvar-mart oylarida 104 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni (2,5 bar) ga ko'paygan.

